

TEMURIYLAR DAVRIDAGI QONUN USTUVORLIGI VA INSON QADRININGULUG'LANISHI

*Alfraganus Universiteti
Farhodova Oynura*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta asrlar tarixi, markaziy osiyo hamda g'arbiy osiyo mamlakatlari tarixining ma'lum va mashhur yirik davlat hukmdori Amir Temur va Temur barpoetgan ulkat sultanatning tashkil topishi, diplomatiyasi, harbiy va davlat boshqaruvi kabi yo'naliishlarda tutgan ro'li va strategiyasi haqida ayrim masalalar bayon etilgan. Quyida bayon etiladigan maqolada Temur va Temuriylar davridagi qonunchilik, tashqi munosabatlarni o'rnatishdagi sinoatlar, keng tarqalgan va uzoq taraqqiy etgan buyuk sultanatni markazlashgan siyosiy tartibni o'rnatish va hududlararo tinchlik va birlikni saqlashga qaratilgan islohotlatlari yoritilgan. Maqola hozirgi davr o'sib mamlakatimiz rivoji va boshqaruvi sohasida, buyuk davlat arbobi Amir Temurning deyarli butun osiyo mintaqasida olib borgan siyosati va uning davlatni idora etish borasidagi adolatli mahoratidan o'rnak olgan holda o'z faoliyatini olib borish istagidabo'lgan yoshlарimizga qaratiladi.

Kalit so'zlar: Temuriylar iqtisodi va boshqaruvi, qonunchilik, siyosat, harbiy faoliyat, mahalliyaholi,adolat, musulmon fiqh qoidalari

Amir Temur o'zi o'sib yetishib chiqayotgan davri uchun muhim va zarur shaxs edi. Ko'plab yozma manbalarda keltirilishcha, o'z davrining yirik harbiy va davlat boshlig'i bo'lgan Amir Temur siyosiy, huquqiy asoslarga ega bo'lgan ulkan davlar barpo etdi. Sohibqiron Amir Temur o'rta asrlar davrida Temur hokimiyat tepasiga ko'tarilib, tarixda Temuriylar imperiyasi deb atalgan eng yirik imperiyalardan birini qurdi. Amir Temur davlat yaxlitligi va qudratini mustahkamlash maqsadida harbiy kuchga alohida e'tibor qaratgandi. Amir Temur sultanatining diqqatga sazovor jihatlaridan biri uning harbiy strategiya va taktikasi edi. U psixologik urushni muvaffaqiyatli qo'llashi bilan mashhur bo'lib, ko'pincha turli vositalar orqali dushmanlarida qo'rquv uyg'otardi. Amir Temur o'zining harbiy mahoratiga qaramay, madaniyat va san'atga ham qiziqqan. U olimlar, rassomlar va hunarmandlarning homiysi bo'lib, uning homiyligida Temuriylar sultanati madaniy tiklanish davrini boshidan kechirdi. Uning davrida mamlakat miqyosidagi ulkan binokorlik va qurilish ishlari amalga oshirildi. Amir Temur diniy bag'rikengligi, ayniqsa islomga nisbatan bag'rikengligi bilan ham tanilgan. U islom ulamolarinie'zozlagan, hatto Makkaga xaj ziyyaratiga ham borgan. Biroq u o'z fuqarolarini islom dinini qabul qilishga majburlamadi, ularga o'z dinlariga erkin e'tiqod qilishlariga imkon berdi. Bu yondashuv uning imperiyasida barqarorlikni saqlashda hal qiluvchi rol o'ynadi. Temur

aqlli va fikrli inson edi, uning siyosiy tadbirlari ham fuqarolar hayoti va mamlakat osudaligiga qaratilgandi. Temurning harbiy yurishlari shafqatsizligi va samaradorligi bilan ajralib turardi. Uko'p sonli va yaxshi qurollangan qo'shinlarni mag'lub etish uchun harbiy va jang paytining o'zida qo'shin jang usulini o'zgartirib, dushmanni sarosimaga qo'yishga muvaffaq bo'lgan.

Uning hiylalar, pistirma va tungi hujumlarni o'z ichiga olgan taktikasi dushmanlarini tahlikadatutdi va jang maydonida muvaffaqiyat qozonishini ta'minladi.

O'rta asr tarixiy manbalarida Amir Temur bir necha oliy unvonlar sohibi bo'lganligi keltirilgan: sohibqiron, amir, bek, jahongir, ko'ragon, sulton, xoqon... Temur unvonlarining mazmun-mohiyati adabiyotlarda kam uchraydi va yaxlit ma'lumotlar berilmagan. Amir Temur ikki sayyoraning bir biriga yaqinlashuv jarayonida tavallud topadi. Bu Mirrix va Mushtariy yangi nom bilan Mars va Yupiter sayyoralari edi bu jarayonga "Qiron burji" holati deyiladi. Mahalliy xalq manbalarida qayd etilishicha, bunday go'dak kelajakda toj-u taxt va baxt-saodat egasi bo'ladi. Muarrixlar fikricha, "qiron" yulduz burjlarining baxtli kelishi har sakkiz yuz yilda bir marta kuzatiladi. Makedoniyalik Aleksandr, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hamda Amir Temur ana shu vaqtida tavallud topishgan. Temurbek "Yeti iqlim sohibqironi" (Ibn Arabshoh) ham deb atalgan. Amir Temurning harbiy mohirligi asosan ikki jabhada, mohir sarkarda va harbiy tashkilotchi sifatida namoyon bo'lgan. Qudratli hukmdor va lashkarboshi, harbiy tashkilotchi sifatida Amir Temur intizomli qo'shin tuzishga, qo'shin qismlarini mohirona jangga yo'naltirish, jangning yakuniy pallasida harbiy kuchni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga, armiyadagi jangovar ruxni kerakli darajada ushlab turishga tuyassar bo'ldi. Amir Temurning jangovar tuzilishi "yasol" hisoblanib, taktik usul har bir jangdan so'ng yanada takomillashib borilgan, temur qo'shini o'z davri uchun ilg'or qurol texnikasi bilan qurollangan, qo'shin tarkibidagi har bir qism farqlanuvchi kiyim bosh, qurol ham tug' va bayrog'i bilan ajratilgan. Bunday ajralish qo'shin boshqaruvida bir qancha yengilliklarni taqdim etgan. Amir Temurning harbiy san'at rivojlanishiga qo'shgan katta xizmatlaridan yana biri qo'shini qanotlarini jang paytida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha dushman qo'shinlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga orqadan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism-qonbulning joriy etilishidir. Sohibqiron Amir Temur harbiy san'atni eng yuqori cho'qqiga olib chiqqan buyuk sarkardadir. Amir Temur davridan olti asrdan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa ham, uning harbiy san'atini o'rganish hamon davom etmoqda. Uning faoliyati, turli muhorabalarda qo'llagan strategiya va taktikasini dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarining harbiy

akademiyalarida o'rganilayotganligi bejiz emas. Amir Temur shaxsi tarixda o'zining ko'p qirralifaoliyati bilan Sharq renessansiga asos solgan bunyodkor sifatida tanilgan. Sohibqironning hukmronligi davrida davlatchilik, qo'shinlar tuzish, ilm-fan

va san'at hamda bir qator sohalarda katta o‘zgarishlar kuzatildi. Ta’kidlash joizki, Amir Temurning davlatchilik va sarkardalik mahorati, harbiy san’ati O‘zbekistondan tashqarida ham ko‘plab tadqiqotchi-olimlar, nufuzli xorijiy harbiy akademiyalarini o‘ziga jalb qilmoqda.

Temurning eng mashhur yurishlaridan biri 1398-yilda Dehliga bostirib kirishi bo‘ldi. U 90 000 dan ortiq askardan iborat qo‘shinga boshchilik qilib, shaharga dahshatli hujum uyushtirdi, boyliklarini talon-toroj qildi va aholisini qirg‘in qildi. Amir Temur har bir jangga kirishdan oldin puxta o‘ylangan hiylani ishlatar edi. Hindiston yurishida hindlar Dehli qal’asini mustahkamladilar va Amir Temur bilan jang qilishga shaylandilar. Amir Temur bu holda Dehli qal’asi olish uzoqqa cho‘zilib ketishini o‘yladi. Shunda u dushman lashkarini dadillantirib, qal’adan chiqib jang maydoniga kirishi uchun o‘zini kuchsiz va qo‘rroqdek qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Shu sababli lashkardan uzoqroqda xandaq qazdirdi. Xandaq ichiga yaxshilab joylashganidan so‘ng, lashkarning bir qismini dushmanqa qarshi jangga tashladi. Askarga dushman qarshisiga borgach, o‘zlarini kuchsiz ko‘rsatib, qo‘rqanday bo‘lib chekinishlarini va g‘animni aldab dadillantirib kelishni buyurdi. Dushman lashkari bu holni ko‘rib o‘zini g‘olib hisoblab jang maydoniga chiqqan edilarki, Amir Temur lashkarlari bilan yuzma-yuz keldilar.

Dehli hokimi Sulton Mahmud jangga kirishdi va yengilib tog‘ tarafga qochdi, Dehlining talon- toroj qilinishi butun mintaqani larzaga soldi va Temurning harbiy qudratliligi haqidagi obro‘yini mustahkamladi.

Ko‘rinib turibdiki, dushmanqa hiyla ishlatishda Amir Temur o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lgan. Uhar qanday vaziyat va sharoitda tezkor qaror qabul qilar va dushmanqa kutilmagan zarba berish rejasini ishlab chiqar hamda amalga oshirar edi.

Temur janglarda shafqatsiz bo‘lishiga qaramay, o‘zining strategik qarashlari va boshqaruv mahorati bilan ham mashhur edi. U Turkiyadan Hindistongacha bo‘lgan keng va xilma-xil imperiya ustidan hukmronlik qilish imkonini beruvchi boshqaruv tizimini o‘rnatdi. Uning hukmronligi davrida shaharlar gullab-yashnadi, savdo-sotiq, madaniyat gullab-yashnadi, u zabit etgan mamlakatlarda oltin davrni qura olgan hukmdor sifatida qaraldi. Amir Temurning kichik mahalliy yurishlardan, keng va muvaffaqiyatli, imperiyalar zabit etuvchi darajasiga ko‘tarilishi buyuk hukmdor, jasorat va harbiy daho hikoyasidir. Uning tarixdagi eng buyuk va odil hukmdor sifatidagi merosi ko‘rish va qat’iyatning mustahkam kuchidan dalolat beradi. Amir Temur jamiyat hayotining turli jahbalariga ta’sir o‘tkazib, bugungi kungacha o‘z ta’sirini o‘tkazib kelayotgan abadiy meros qoldirdi. 14-asrda qudratli bosqinchi va hukmdor sifatida Temurning ta’siri madaniy, me’moriy va tarixiy sharoitlarda hamon sezilishi mumkin. Amir Temurning tarixga qo‘shgan eng muhim xizmatlaridan biri uning imperiyasida madaniy xilma-xillik va diniybag‘rikenglikni targ‘ib qilish bo‘ldi. Temur musulmon hukmdori bo‘lishiga qaramay, o‘z hududlarida boshqa dinlarning e’tiqodini

hurmat qilgan va hatto qo'llab-quvvatlagan. Bu bag'rikenglik badiiy va intellektual faoliyatning gullab-yashnashiga imkon berdi, natijada asrlar davomida saqlanib qolgan boy madaniy meros paydo bo'ldi. Temur arxitekturaga ham katta qiziqish bildirgan va o'z imperiyasi bo'y lab ulkan bino va inshootlarni foydalanishga topshirish bilan mashhur. Temuriylar me'morchiligining eng mashhur namunalaridan biri Samarqand shahridagi Go'ri Amir maqbarasi hisoblanadi. Maqbara qurilishi tugallangach, Amir Temurning ma'naviyat ustozi Mirsaid Barakiyning jasadi ushbu maqbaraga ko'chiriladi. Amir Temurning ma'naviyati ustozi poyiga dafn etilgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, bunday vasiyatnomani Amir Temurning o'zi tuzgan. Binoning ichki qismi qayta bezatilgan, maqbara sahnasida kulbalar quriladi, atrofi nafis marmar bilan o'raladi. Maqbaraga sharqiy tomondan 1424-yilda qurilgan ko'p gumbazli galereya orqali kirish mumkin. Maqbaraning murakkab koshinkorligi, baland gumbazlari va hayratlanarli mozaikalari Temurning vaqt sinovidan o'tmaydigan ulug'ver va go'zal inshootlar yaratishga intilishidan dalolat beradi. Temur me'moriy mo'jizalardan tashqari, san'at va ilm-fanni ham targ'ib qilgan, saroyiga turli viloyatlardan olimlar, rassomlar, hunarmandlarni jalb qilgan. Ushbu madaniy almashinuv yangi badiiy uslublarning rivojlanishiga, turli xil an'analarning uyg'unlashuviga va yo'qolishi mumkin bo'lgan bilimlarning saqlanishiga olib keldi. Temur va temuriylar davrida mamlakat aholisi uchun tinch, osuda va eng muhim madaniy to'q hayot tarzini yaratib berilgan. Amir Temur va temuriylar davlatida turli bayramlar, sayillar, tomoshalar o'tkazilib kelinganligi to'g'risida ko'pgina ilmiy ma'lumotlar bor.

Ma'rakalarda har toifa ijrochilar alohida – alohida tarabxona va xosxona san'atkorlarning aralash guruhlari o'z mahoratlarini namoyish etishgan bo'lsa, teatrlashgan sayillar va namoyishlarda minglab har xil ijrochilar qatnashgan va o'zaro bellashgan. Amir Temur Movarounnahrda ilgaritdan mavjud an'analarni davom ettirgan holda, o'zining har bir g'alabasini bayram, to'y bilan nishonlagan. Har bir aziz mehmonni ziyofat va bazm bilan siylagan. Oilaviy marosimlarni ham sozanda, xonanda va raqqos-u-raqqosalarsiz, umuman olganda o'yinchilarning katta-katta guruhlarini jalb etgan xolda o'tkazishni yoqtirgan. Uning davrida xalq bayramlari juda ham keng ko'lamda nishonlanganligini tarixiy manbalardan topishimiz mumkin. O'rta asrlar umuman arab diyorlarida vaqf mulki yer egalining muhim bir turi hisoblanib kelgan. Vaqf siyosati esa musulmon mamlakatlar xo'jaligi va diniy siyosatining muhim omillaridan biri bo'lgan. Amir Temur davrida ham qishloq xo'jaligining keng tarqalgan turi bu vaqf mulki edi. Sohibqiron sayyidlar, avliyolar va din peshvolarini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirib turgan. Ular vafot etgach qabri va maqbarasini obod qilgan. Xususan, u Turkistondagi Ahmad Yassaviy va uning otasi Ibrohim ota, onasi Qorasoch ona, ustozi Arslonbob ota, Samarqanddagi Qusam ibn Abbos, Ruhobod, Toshkentdagi Zangi ota, shayx Zayniddin bobo, Shayxontohur

bobo, Suzuk ota va boshqa aziz-avliyolarning qabri va maqbarasini obod qilgan va muhtasham qurilishlar olib borgan va albatta u yerlarning ta'minoti uchun vaqf ajratgan. Shuningdek, Amir Temur mamlakatdagi madrasa va xonaqohlarning ta'minoti uchun ham vaqf ajratgan. Davlat vaqflarda ishning tartib-qoida bilan olib borilishini nazoratga olgan. Bu haqda “Tuzuklar”da “Amr qildimki, sadrlar sadri sayyidlar va boshqa arboblarga suyurg‘ol tariqasida berilgan yerlar va vaqflarning ahvolini, ular vazifalarini qay darajada ado etayotganini tekshirib, menga arz qilib tursin”, deya ta'kidlangan.

Amir Temurning sultanatida nafaqat Movarounnahrda, balki Eron, Suriya, Iroq va boshqa hududlarda ham vaqf mulki ko‘p bo‘lgan.

Amir Temur bir haqiqatni yaxshi anglagan – jamiyat e’tiqodsiz yashay olmaydi. Odamlarga din kerak, iymon kerak, ishonch kerak. U o‘z “Tuzuklari”da shunday deydi: “har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim”. Amir Temurning Qur’oni Karimni yod bilgani, diniy bahslarda yirik ulamolar bilan barobar so‘z yuritgani uning ma’naviyati, iymonu diyonati qanchalar pok va mukammal ekanini bildiradi. Ma’lumki, diniy ta’limot va tarbiyatning jamiyat hayotidagi o‘rni va xizmati nihoyatda katta. Amir Temurning islom diniga bo‘lgan munosabatidagi eng muhim qirra, bu – musulmonchilik aqidalarining jamiyat osoyishtaligi, ravnaqi, ijtimoiy adolat, iymon butunligi, ma’naviy poklik uchun xizmat qildirishga safarbar etilishidir. Bugun dunyoning qariyb 50 mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Temur va temuriylar davri haqida ko‘plab kitoblar nashr etilmoqda... O‘tgan olti yuz yil mobaynida Amir Temurga bag‘ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqinni tashkil etadi.

O’rta asrlar Temuriylar davrida Movaraunnahrni ko‘plab mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy ba’zan siyosiy va harbiy ahamyatga ega bo‘lgan karvon yo’llari bog’lagan edi. Bu yo’llar bir-biridan iqtisodi, xalq turmush tarzi, dini, ma’naviy va moddiy rivojlanishiga imkon yaratdi. Ijtimoiy savdo yo’llari diplomatik aloqalarning amaliy vazifasini ayni vaqtida mamlakat va xalqlarning o’zaro iqtisodiy va madaniy ta’sirini mustahkamlashga xizmat qildi.

Buyuk jahongir Amir Temur sohibqiron o‘limi oldidan avlodlariga shunday vasiyat qilgan: “...Men shundan taskin topamankim, podshohlik davrimda kuchlilarning ojizlarga ozor berishlariga yo‘l qo‘ymadim. Xalqlar osoyishtaligi borasida qaram fuqarolardan xabardor bo‘lib turinglar, qat’iyatli va mardonavor bo‘linglar. Ulkan davlatni menday uzoq yillar davomida boshqarish uchun qo‘llaringdagi shamshirni sharaf va nomus bilan mahkam tutinglar... Agar, sizlar mening vasiyatlarimga amal qilsalaringiz va boshqa ishlaringizda adolatga, shafqatga ko‘ra ish tutsalaringiz, tinchlik-osudalik Turon zaminida uzoq vaqt saqlanadi. Agarda o‘zaro nizolarga yo‘l qo‘ysalaringiz, dushmanlar to‘polon va tartibsizliklarni boshlaydilarki, ularni jilovlashning iloji qolmaydi. Sizlar bir jon, bir tan bo‘lsalaringiz,

hech kim mening so‘nggi vasiyatlarimni bajarishlaringizga monelik qila olmaydi”. Bu dono vasiyatlar asrlar osha bizning davrimizga qadar yetib keldi. Undan xuddi hozirgi davrning nafasi sezilib turganday. Ulug‘ bobokalonimiz bizni adolatga, sodiqlikka, birlikka chorlamoqda. O‘zaro nizo, adovatlardan xoli bo‘linglar, deb, insof, shafqat va halollikka undamoqda. Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. Ahmedov “ Tarixdan saboqlar”
- A. Sagdullayev “ O’zbekiston tarixi” davlat va jamiyat taraqqiyoti
2. B.Ahmedov. Amir Temurni yod etib. Toshkent-2018
3. M.Xurramov, M.J.Toshov. —Yangi O’zbekiston sharoitida uzlucksiz ta‘lim muammolari va pedagogika fani taraqqiyoti istiqbollari xususida
4. Adambaev Jumanazar Xayitbaevich "Amir Temur" haqida ACADEMIC
5. RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES‘ -2021
6. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2282>
7. https://www.ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_9/786-793.pdf
8. https://kitobsevar.uz/kxpv/xrpt_m102l2rlmx3x038al3mfdohbg5y4nne3eetp6a3iyu7yl4zzvb51pb2y7nrj4vc82vnvg6j228.pdf
9. https://novotours.uz/about-uzbekistan/izvestnye-lyudi-uzbekistana/amir_temur.html/